

"Maxam-Chirchiq" Ajda sodir bo'lgan portlash yuzasidan qo'shimcha ma'lumot

// 04 October 2022 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/maxsam-chirchiq-rasmiy-bayonot-qushimcha-malumat>



"O'zbekimiyosanoat" AJ tizimidagi "Maxam-Chirchiq" Ajning Ammiak-1 ishlab chiqarish sexi sintez bo'linmasida bugun sodir bo'lgan portlash va yong'in natijasida korxonaning boshqa ishlab chiqarish maydonlari hamda aholi yashash punktlariga zarar yetmagan. Shu bilan birga atrof muhitga zararli gazlar tarqalmagan. Bu bo'yicha barcha xavfsizlik choralari o'z vaqtida ko'rilgan. Yong'inni bartaraf etish ishlari olib borilmoqda. Korxonaning barcha boshqa sexlari uzluksiz belgilangan tartibda ish faoliyatini davom ettirmoqda.

Voqea joyiga zudlik bilan yetib borgan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari – Energetika vaziri J. Mirzamahmudov boshchiligidagi komissiya a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A. Qo'ldoshev, "O'zbekimiyosanoat" AJ rahbariyati va mutaxassislari, IIV va boshqa tegishli mutasaddilar tomonidan hodisa sabablari va oqibatlari to'liq o'rganilmoqda.







“O`zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati